

ADABIYOT FANINI MAKTABLARDA O'QITISH HAMDA USHBU JARAYONDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Po'latova Dilnoza

Kitob tumani 31-sonli maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ta'lim uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning sifati darsda qo'llanilgan metodlarga bog'liq. Darsning mazmunli o'tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o'qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Ushbu maqolada adabiyot darslarida interfaol metodlarning o'rni hamda, uning qo'llash samaradorligi haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Interfaol ta'lim, metod, pedagogik texnologiya, dars, adabiyot, o'qitish jarayoni.

Mustaqillik sharofati bilan respublikamizda yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayotimiz umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo'nalishlariga jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda. "XXI asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli barkamol shaxslarni jahon ta'lim standartlariga mos ravishda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir". Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik - psixologik jihatdan chuqur bilimga egaligi, intellektual salohiyatning yuksak darajadali, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo'lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladilar. Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham ijodiy fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir.

Dunyoning barcha rivojlanayotgan davlatlari hozirgi globllashuv vaqtda o'z oldiga hamma bolalarni umumiy o'rta ta'lim jarayoniga to'liq qamrab olish masalasini qo'ygan bir vaqtda, mustaqil O'zbekistonimizda ushbu muammo allaqachon muvaffaqiyatli hal etilgan bo'lib, uzluksiz ta'limda masofaviy ta'limni qo'llab, o'quvchilar bilimini baholashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda. Bugungi kunda navbatdagi ustuvor vazifa sifatida, sifatli ta'limtarbiya berish, ta'limning samaradorligini oshirish masalasi qo'yildi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanishga erishilmoqda. Bu esa interfaol ta'lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo'lishini ta'minlashga ko'maklashadi. Interfaol usullaridagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Dars – ta'limning asosiy shakli bo'lib, murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Respublikamizda ta'lim sohasida chuqur islohotlar o'tkazilayotganligi, ayrim xorijiy ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar, jahon ta'lim standartlariga yaqinlashishga intilish, darslik va o'quv dasturlarining yangi avlodi yaratilishi darsni yanada ixcham va qiziqarliroq shaklda tashkil etilishi uchun zamin bo'lmoqda. Maqolada ta'limning interfaol usullarining ayrimlari haqida ma'lumot berildi xolos. Ularni boyitish, to'ldirish, yangi-yangi usullarni kashf etish, dars samaradorligini oshirish barchamizdan izlanishni talab etadi.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni

kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Maktablarda adabiyot fanini o'qitish o'quvchilarning ma'naviy, axloqiy va estetik dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Adabiyot darslari orqali o'quvchilar badiiy asarlar mazmunini anglaydi, ularda aks etgan hayotiy voqealar, insoniy fazilatlar va milliy qadriyatlar bilan tanishadi. Shu bilan birga, adabiyot fanini o'qitish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutq madaniyati va badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida adabiyot darslarini samarali tashkil etish uchun turli pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Interfaol metodlar o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Bunday metodlar yordamida o'quvchilar badiiy asarlarni faqat o'qibgina qolmay, balki ularni tahlil qilish, muhokama qilish va o'z fikrlarini asoslab berishga ham o'rganadilar.

Xozirgi kunda adabiyot darslarida o'quvchilarni darsga jalb etish va uning qiziqтира olish, esida tez saqlanib qolishi uchun turli xil metodlardan foydalanish juda yaxshi samara bermoqda. Dars jarayonida turli metodlardan foydalanish o'qituvchidan o'z ustida ishlashni, o'quvchidan fikrini bimalol bayon eta olishga o'rgatadi. Ma'lumki hozirgi kunda interfaol metodlarning 100 dan ortiq turi mavjud, ulardan ko'pi sinovdan samarali o'tgan. Interfaol metodlar deganda birinchi o'rinda hayolimizga keladigan narsa biz zamonaviylashgan maktab emasmiz, bizda elektron doska zamon talabidagi sinf xonalari yo'q deb o'ylaymiz. Lekin oddiy oq qog'oz rangli qog'ozlar turli o'quv qurolaridan foydalangan holda darsni juda qiziqarli va esda qolarli qilib o'tish mumkin.

Adabiyot darslarida interfaol usullarning joriy etilishi istiqbolli natijalarni ko'rsatmoqda. O'quvchilar munozaralarda faol ishtirok etib, o'qigan asarlari yuzasidan o'z fikrlarini erkin bayon etadilar hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Interfaol o'qishlar va multimedia taqdimotlari badiiy asarlarning mazmunini chuqurroq anglashga hamda o'quvchilarning madaniy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Rol o'ynash va hikoya qilish faoliyatlari esa o'quvchilarda ijodkorlik, tasavvur doirasi va empatiya tuyg'ularini rivojlantiradi.

Adabiyot darslarini o'qitishda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda. XX asrning oxirgi yillariga qadar adabiyot darslarini tashkil etishda tushuntirish-bayon metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi, mustaqil ish metodi hamda induktiv va deduktiv metodlar keng qo'llanilib kelgan.

Adabiyot darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlarga bahs-munozara, aqliy hujum, rolli o'yinlar, klaster, "Insert", "Bumerang", "Blits-so'rov" kabi usullar kiradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, ularni faol fikrlashga undaydi hamda badiiy asar mazmunini chuqurroq anglashga imkon yaratadi. Masalan, rolli o'yinlar orqali o'quvchilar asar qahramonlari obraziga kirib, ularning xarakteri va ichki kechinmalarini yaxshiroq tushunadilar.

Adabiyot darsida eng ko'p qo'llaniladigan metod o'qituvchining bayoni metodidir. Bayon metodida o'qituvchi o'tayotgan yangi mavzusini og'zaki bayon qiladi. O'tayotgan mavzusi oldindan o'quvchilarga qisman tanish bo'lgan bo'lsa notanish qismlari haqida ko'proq ma'lumot beriladi. Yangi o'tilayotgan mavzu oldingi mavzularga bog'lab o'tilsa dars samarasi yana ham qiziqarli bo'ladi. Suhbat o'quvchilar nutqini oshiradi. So'zlashuv madaniyatiga o'rgatadi. O'tilganlarni mustahkamlash uchun test metodidan xam foydalaniladi. Xar chorak davomida o'quvchilarga o'zlari test tuzish metodini qo'llansa yil davomida yig'ilgan testlarni o'quvchilarning o'zlariga berish orqali mavzularni mustahkamlash mumkin. Dars yanada qiziqarli va esda qolarli bo'ladi.

Adabiy ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan metodlarning yana biri «5x5x5» metodidir. Adabiy asarlar tahlili jarayonida mazkur metoddan foydalanishda adabiyot o'qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik guruhlarini oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bu metodda sinfdagi o'quvchilar oltita-oltitadan olti guruhga bo'linadi.

Jami 25 o'quvchi ishtirok etadi. O'qituvchi istasa guruhlarga muayyan nomlar berishi ham mumkin. Dars mavzusi e'lon qilinib, ma'lum vaqt belgilanadi. O'quvchilar mavzu atrofida bahslashadilar, o'z munosabatlarini bildiradilar. Mavzu bo'yicha belgilangan vaqt yakunlangach, o'qituvchi guruhlarning a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhida avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u o'z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a'zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o'rganadilar, unga o'z munosabatlarini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt oralig'ida o'quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o'zlari tomonidan tahlil qilinadi. Sinfdagi o'quvchilardan kichik guruhlar tashkil etishda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Guruhlar o'qituvchi tomonidan belgilanadi.
2. Guruhga rahbarlik qila oladigan o'quvchi va guruh a'zolari oldindan aniq belgilab olmadi.
3. Har bir guruhga zeharli va qobiliyatli hamda bo'shroq o'zlashtiradigan o'quvchilar, imkon qadar, teng taqsimlashga harkat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a'zolar bilan to'ldiriladi va vazifalari belgilanadi.
4. Guruh rahbari va a'zolariga vazifalari tushuntiriladi.
5. Har bir guruh doira shaklida o'tirishi, guruhning har bir a'zosi bir-birini ko'rib turishi shart.
6. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalariga e'tibor berib boriladi. Yaxshi g'oya egalari rag'batlantiriladi

Fikriy hujum metodining maqsadi o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil qolipda fikrlashdan qutqarish, ma'lum mavzu yuzasidan har xil fikrlarni to'plash va masalaga ijodiy yondashuvni ta'minlashdan iborat. Bu metoddan foydalanilganda favqulodda, kutilmagan savol yoki topshiriqlar bilan o'quvchilar loqaydlikdan, muvozanatdan chiqariladi va ular bezovta ruhiyat bilan badiiy muammoga, o'quv topshirig'iga «hujum» qiladilar. Ya'ni har bir o'quvchi o'z bilimi, qobiliyati, iqtidori, dunyoqarashi va imkoniyatlari darajasida uni hal

etishga kirishadi. O'quvchilar o'z oldilariga qo'yilgan muayyari masala bo'yicha mulohaza yuritadilar.

Shuningdek, interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarda ijodkorlik, muloqot madaniyati va jamoada ishlash ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Bunday yondashuv orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon etishga, boshqalarning qarashlarini hurmat qilishga va muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topishga o'rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot fanini maktablarda samarali o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ushbu metodlar o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, badiiy tafakkurini rivojlantiradi hamda ularni ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rafiyev A. , G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , "Sharq", 2013.
2. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. T. "Navro'z", 2018.
3. Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. , "Iqtisodiyot", 2012.
4. G'ulomova M. X, Sobirov N.K Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari. Innovatsiya o'quv jarayonida (tezislari to'plami) T2009
5. Bobomurodova A onatili va adabiyoyt darslarida o'yin topshiriqlardan foydalanish T. Musiqqa 2009
6. Anderson T (2008) onlayn talim nazariyasi va amaliyoti. Atabaska universiteti matbuoti
7. Miller, T(2019) Talimda o'quv natijalarini oshirish samaradorligi. Talim texnologiyalari tadqiq etish 67(1*)